

Ilmiy tadqiqot va innovatsiya: “Qishloq va suv xo‘jaligi energiya ta‘minoti” fakulteti 3-bosqich talabalari bilan uchrashuv

Bugungi kunda bu ikki tushuncha doimo birga ishlatilishi odat tusiga kirib ulgurdi. Institutimizda ta‘lim va ilmiy tadqiqot, innovatsiya integratsiyasini yanada rivojlantirish, uni yangi bosqichga ko‘tarish borasida qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Talaba yoshlarni soha rivoji uchun jalb qilish, ularni samarali ilmiy ijod bilan shug‘ullanishlarini ta‘minlash maqsadida targ‘ibot ishlari yanada izchil yo‘lga qo‘yilmoqda. Ana shunday uchrashuvlardan biri 2019-yil 11-sentyabr kuni institut Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash bo‘limi boshlig‘i Sh.Imomov hamda Iqtidorli talabalarning ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish bo‘limi xodimlari ishtirokida “Qishloq va suv xo‘jaligi energiya ta‘minoti” fakulteti 3-bosqich talabalari bilan tashkil etildi. Uchrashuv davomida talabalarga ilmiy ijodkorlik faoliyati to‘g‘risida tushunchalar berildi. Muhandis ijodi mahsuli - inson hayoti farovonligini ta‘minlashga qaratilgan ixtirolar yaratish ekanligi haqida talabalarni yanada chuqur izlanishga undovchi fikrlar ta‘kidlandi.

Talabalar tomonidan ilmiy faoliyat, novatorlik bo‘yicha ko‘pgina savollar tushdi va ularga batafsil javoblar berildi.



Iqtidorli talabalarning ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish bo‘limi xodimi D.Akbarov axboroti
Institut matbuot xizmati rahbari R. Jumaniyozov